



**FARG'ONA VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**FARG'ONA VILOYATIDA
QURILISH ISHLARI**

2022-yil yanvar-fevral

2022-yil yanvar-fevral oylariga uchun Farg'ona viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-fevral
oylariga,

Farg'ona viloyatida jami

774,6 mlrd. so'mlik qurilish ishlari
bajarilib, o'sish sur'ati 2021-yilning
yanvar-fevral oylariga nisbatan 103,2
%ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, %da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish
tashkilotlari, kichik korxona
va mikrofirmalar hamda norasmiy
sektorlarda amalga oshirilgan ishlar
tarkibi bo'yicha shakllanadi.

15,4

Yirik qurilish tashkilotlari

66,5


Kichik korxona
va mikrofirmalar

18,1

Norasmiy
sektor

Amalga oshirilgan qurilish ishlari
mulkchilik shakli, davlat va nodavlat
bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi
bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi
bu — o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish
ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy
ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish
ishlari natijasidir.



**Qurilish sohasi mamlakatimiz
milliy iqtisodiyotining barqaror
o'sishiga o'zining munosib hissasini
qo'shib kelayotgan sohalardan
hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va
tashkilotlarning soni 2021-yilning
mos davri bilan solishtirganda o'sish
sur'ati 108,6% foizga oshgan (284
birlik).**

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaraganda:

Binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 55,9 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 110,0 foizga oshgan (183 birlik);

Fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 10,6 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 109,2 foizga oshgan (32 birlik);

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 33,5 foiz ulushni va 106,1 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi (69 birlik).




Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, birlik

	holatiga:		o'tgan yilga nisbatan, %da
	01.03.2021-y.	01.03.2022-y.	
Farg'ona viloyati	3 303	3 587	108,6
Farg'ona sh.	888	968	109,0
Qo'qon sh.	325	346	106,5
Quvasoy sh.	117	128	109,4
Marg'ilon sh.	347	340	98,0
Oltiariq	113	119	105,3
Qo'shtepa	103	104	101,0
Bag'dod	157	158	100,6
Buvayda	135	137	101,5
Beshariq	84	93	110,7
Quva	139	147	105,8
Uchko'prik	178	199	111,8
Rishton	72	91	126,4
So'x	48	80	166,7
Toshloq	132	135	102,3
O'zbekiston	86	97	112,8
Farg'ona	100	127	127,0
Dang'ara	129	137	106,2
Furqat	73	83	113,7
Yozyovon	77	98	127,3


2022-yil yanvar-fevral oylaridagi
Farg'ona viloyatida qurilish ishlari

2022-yil 1-mart holatiga ko'ra Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, %da



Joriy yilning yanvar-fevral oylariga, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 119,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 6,1 marta tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021-yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan 543,1 % punktga ko'payib, 15,4 %ni tashkil etdi.

2022-yil yanvar-fevral oylariga yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Marg'ilon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 67,3 %i yoki 2021-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 57938,9 marta ko'p), Beshariq tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 20,0 %i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 109,3 %i kamaydi) va Yozyovon tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 27,6 %i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 184,7% usish sur'ati)ga to'g'ri keldi.



2022-yilning yanvar-fevral oylariga kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 66,5 %i to'g'ri kelib, 2021-yilning yanvar-fevral oylariga ko'rsatkichiga nisbatan 11,8 foizga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021-yilning mos davriga nisbatan 85,5 %ni tashkil etgan holda 515,0 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, %da



Ma'lumot uchun: joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Farg'ona tumani (9,4 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 2,3 marta ko'paydi), Farg'ona shahri (164,6 mlrd. so'm yoki 87,0 %), Bag'dod tumani (100,0 mlrd. so'm yoki 102,2 %) va Qo'shtepa tumani (41,8 mlrd. so'm yoki 62,8 %) to'g'ri keldi.


Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 18,1%ni tashkil etdi yoki 140,5 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2021-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 108,1 %ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 15,0 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 759,6 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 1,9 % va 98,1 %ni tashkil etdi.



2022-yil yanvar-fevral oylaridagi
Farg'ona viloyatida qurilish ishlari

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi


2022-yil yanvar-fevral oylarida

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 67,0 %i yoki 518,7 mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan 113,9 mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 22,0 %ni tashkil etdi.



Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 120,9 mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 23,3 %ni tashkil etdi.



Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan 284,0 mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 54,7 %ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022-yil yanvar-fevral oylarida


	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, %da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya va qayta qurollantirish (mlrd. so'm)
Farg'ona viloyati	774,6	103,2	518,8
Farg'ona sh.	197,9	92,6	114,7
Qo'qon sh.	47,9	81,4	29,8
Quvasoy sh.	19,8	81,9	8,1
Marg'ilon sh.	152,8	289,4	141,1
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	15,9	67,0	10,0
Qo'shtepa	49,6	69,6	16,0
Bag'dod	103,1	100,5	34,1
Buvayda	16,4	60,6	9,2
Beshariq	14,3	101,2	52,6
Quva	11,9	61,5	14,6
Uchko'prik	13,8	134,7	8,9
Rishton	10,6	83,8	6,3
So'x	15,1	156,1	5,4
Toshloq	24,6	100,4	10,4
O'zbekiston	14,7	111,9	16,1
Farg'ona	10,8	190,0	3,6
Dang'ara	23,3	57,2	14,2
Furqat	20,1	146,7	14,4
Yozyovon	12,0	109,2	9,3

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda

2022-yil yanvar-fevral oylaridagi
Farg'ona viloyatida qurilish ishlari



Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.


Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 17,8 %ni tashkil etib, 2021-yilning yanvar-fevral oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan 17,0 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021-yilning yanvar-fevral oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan 15,4 % punktga kamayib, 59,7 %ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2021-yilning yanvar-fevral oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan 1,6 % punktga kamayib, 22,5 %ni tashkil etdi.

Ulushi, %da



2022-yil yanvar-fevral oylaridagi
Farg'ona viloyatida qurilish ishlari


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlar

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 4,6 %ni tashkil etdi va 2021-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 4,5% punktga kamaydi.


Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 92,2 % (2,2 % punktga ko'payish) hamda norasmiy sektorning ulushi 3,2 %ni tashkil etdi (2,3 % punktga ko'paydi).




Ulushi, %da



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxona va mikrofirmalar



Norasmiy sektor



2021-yil
yanvar-fevral




2022-yil
yanvar-fevral

2022-yil yanvar-fevral oylaridagi
Farg'ona viloyatida qurilish ishlari


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 1,4 % punktga ko'paydi va 10,3 %ni tashkil etdi. Qolgan 89,7 %i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021-yilning yanvar-fevral oyga nisbatan 1,4 % punktga kamaydi.



2022-yil yanvar-fevral oylaridagi
Farg'ona viloyatida qurilish ishlari

Qurilish ishlari hajmi yuqori shahar va tumanlar



Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Tel.: 73 241-98-42